

TA'LIM SOHASIDA RAQAMLASHTIRILGAN ARXIVLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
*2-kurs magistranti **Nomozov Muxammadali***

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi talimdagi axborot texnologiyalardan samarali foydalanish va ta'lim sohasidagi ahamiyatiga qaratiladi.

Annotation: This article focuses on the effective use of information technology in education today and its importance in the field of education.

Kalit so'zlar: Raqamli kolleksiya, kutubxona, raqamli kutubxona, internet

Keywords: Digital collection, library, digital library, internet.

Hayotimizda axborotning ahamiyati kundan-kunga ortib borayotgani barchamizga ayon. "Infosfera" (axborot olami) nafaqat masofalarni qisqartirib, uzoq joylarni yaqinlashtirmoqda, balki insoniyat tarixiga oid barcha bilimlarni o'z ichiga olgan ajoyib dunyoni ham taqdim etmoqda. Bunday olamga kirish uchun esa bizga zarur bo'lgan kalit – internetdan foydalanishni bilishdir. Ushbu mavzuda elektron kutubxonalarning ahamiyatiga to'xtalib o'tamiz, chunki ular ta'lim va fan sohasida tobora dolzarb bo'lib, jahon bilim omborining ajralmas qismiga aylanmoqda¹.

Elektron kutubxona deganimizda nimani tushunamoqdamiz? Uning tarkibiy qismlarilari nimalardan tashkil topgan? Internetda minglab kitoblarni taqdim etuvchi saytlar bunday kutubxona hisoblanadimi yoki ular faqat kutubxona saytlarimi? Raqamli kolleksiyalarni yaratish uchun qanday bilim va ko'nikmalar talab etiladi? Ushbu savollarga javob berish orqali elektron kutubxonalar haqida kengroq tasavvur hosil qilishga harakat qilamiz. Ta'kidlash

¹ Jamiyat taraqqiyotida elektron kutubxonalarning rivojlantirishning ahamiyati | Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире
<https://inlibrary.uz/index.php/development-science-education/article/view/17739>

lozimki, bu matnda “e-kutubxona”, “elektron kutubxona” va “raqamli kutubxona” tushunchalari sinonim tushunchalar sifatida ishlatiladi.

G‘arb mamlakatlarida, masalan AQShda, kutubxonalarni avtomatlashtirish 1960-yillarda boshlangan. Elektron kolleksiyalarni yaratish uchun kitoblarni kompyuterga kiritish jarayoni 1971 yildan boshlab amalga oshirilgan.²

Madaniy meros va bilimlarni asrash Uzoq muddatli saqlash: Eski kitoblar, hujjatlar va san‘at asarlari kabi jismoniy materiallar yomonlashishi mumkin. Ushbu materiallarni raqamlashtirish ularning kelajak avlodlar uchun saqlanishini ta‘minlaydi. Raqamlashtirilgandan so‘ng, ushbu resurslar muhim madaniy, tarixiy va ilmiy bilimlarni himoya qilish uchun zarar yoki yo‘qotishdan qo‘rqmasdan saqlanishi va ko‘paytirilishi mumkin³

Raqamli kutubxonalarining texnik xususiyatlari. Elektron kutubxonalar o‘z tarkibida quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Ma‘lumotlar:** Kolleksiyalardagi ma‘lumotlarni saqlaydi va ularga xizmat ko‘rsatadi.

- **Metadata:** Har bir resursni tavsiflovchi qo‘shimcha ma‘lumotlar (masalan, yaratuvchi, huquq egalari, tasniflash usullari).

- **Tarmoqlanish va bog‘lanish:** Tarmoq orqali turli formatdagi ma‘lumotlarni (matn, audio, video) manipulyatsiya qilish va ularga bog‘lanishni ta‘minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalarning roli. Bugungi kunda ko‘plab davlatlar, xususan AQSh, universitetlari va ilmiy-tadqiqot markazlari elektron kutubxona loyihalarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda. Buning natijasida ma‘lumotni ommaga yetkazish va undan foydalanishni osonlashtirishning samarali tizimlari yaratilmoqda. Ushbu kutubxonalar orqali ilmiy resurslardan

² Jessup, Leonard M.; Valacich, Joseph S. (2008). *Information Systems Today* (3rd ed.). Pearson Publishing. Glossary p. 416

³ Информационные технологии для историков / Учебное пособие / Под ред. Л.И.Бородкина. – М. МГУ, 2006

foydalanish imkoniyati kengaymoqda, ta'lim va tadqiqot jarayonlari esa yanada qulayroq va samarali bo'lib bormoqda.

Elektron kutubxonalar bugungi zamonaviy axborot texnologiyalarining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ularda ma'lumotlar tezkorlik va qulaylik bilan taqdim etiladi. Shu orqali foydalanuvchilar bilimlarni yanada kengaytirish va ulardan samarali foydalanish imkoniga ega bo'lishadi.

Elektron kutubxona tushunchasi, ko'pincha noto'g'ri talqin qilinadi. Tom ma'noda elektron kutubxona, oddiy bir veb-saytda bir necha o'nlab kitoblarning elektron nusxalari joylashtirilgan holatdan ko'ra ancha keng qamrovli tizimdir. Bu oddiy foydalanuvchilar yoki kichik jamoalar tomonidan ishlab chiqilgan matn va fayllar to'plami bo'libgina qolmay, balki maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan yaratilib, bibliografik qidiruv imkoniyatlari kengaytirilgan dasturlar orqali samarali ishlashga moslashtirilgan va doimiy yangilanib turadigan tuzilmani ifodalaydi.⁴

Elektron kutubxona tushunchasi, ko'pincha noto'g'ri talqin qilinadi. Tom ma'noda elektron kutubxona, oddiy bir veb-saytda bir necha o'nlab kitoblarning elektron nusxalari joylashtirilgan holatdan ko'ra ancha keng qamrovli tizimdir. Bu oddiy foydalanuvchilar yoki kichik jamoalar tomonidan ishlab chiqilgan matn va fayllar to'plami bo'libgina qolmay, balki maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan yaratilib, bibliografik qidiruv imkoniyatlari kengaytirilgan dasturlar orqali samarali ishlashga moslashtirilgan va doimiy yangilanib turadigan tuzilmani ifodalaydi. Ushbu kutubxonalar muntazam ravishda moliyalashtiriladi va professional tarzda qo'llab-quvvatlanadi.

Elektron kutubxona va unga o'xshash tizimlar farqlari. Elektron kutubxonani boshqa shunga o'xshash tizimlardan ajratib olish lozim. Quyidagilar **elektron kutubxona emas:**

- **Kutubxona veb-saytlari:** Odatda ular faqat an'anaviy kutubxonalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va cheklangan xizmatlarni taklif qiladi.

⁴ Muslimov N., Sayfurov D., Usmonboyeva M., To'rayev A. Web texnologiya asosida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish. Toshkent. 2015

• **Ma'lumotlar bazalari va onlayn kataloglar:** Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan yoki faqat mavjud resurslarni ro'yxatlovchi xizmatlar.

Elektron kutubxonaning afzalliklari. An'anaviy kutubxonalar bilan solishtirganda, elektron kutubxonalar bir qancha qulayliklarga ega:

• **Saqlash joyiga ehtiyoj yo'qligi:** Kitoblar va boshqa resurslarni saqlash uchun maxsus joy talab qilinmaydi.

• **Nodir asarlarni saqlash va foydalanish imkoniyati:** Uning formatidan qat'i nazar, noyob ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati mavjud.

• **Qulaylik va yangilanish:** Foydalanuvchilar uchun resurslarga kirish qulay va ma'lumotlar muntazam ravishda yangilanib boriladi.⁵

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 Jamiyat taraqqiyotida elektron kutubxonalarning rivojlantirishning ahamiyati | Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире

2 **Jessup, Leonard M.; Valacich, Joseph S. (2008).** *Information Systems Today* (3rd ed.). Pearson Publishing. Glossary p. 416

3 Информационные технологии для историков / Учебное пособие / Под ред. Л.И.Бородкина. – М. МГУ, 2006

4 Muslimov N., Sayfurov D., Usmonboyeva M., To'rayev A. Web texnologiya asosida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish. Toshkent. 2015

5 Информационные технологии в гуманитарных исследованиях: Сборник трудов. Новосибирск: НИИ МИОО НГУ, 1988

⁵ Информационные технологии в гуманитарных исследованиях: Сборник трудов. Новосибирск: НИИ МИОО НГУ, 1988